

Dunyoda koronavirus tarqalishi bilan bog'liq vaziyat to'g'risida

Koronavirus infeksiyasi virusining yer yuzi bo'ylab tarqalish sur'ati hamon yuqoriligicha saqlanib turibdi. Ushbu kasallikdan har kuni o'rtacha 5,9 ming kishi vafot etmoqda. Dunyoda har 15 soniyada bitta o'lim qayd etilmoqda. Lotin Amerikasi COVID-19dan eng ko'p o'lim holati qayd etilgan mintaqada sifatida Yevropani ortda qoldirdi.

Lotin Amerikasi hissasiga dunyodagi barcha o'limlarning deyarli uchdan bir qismi to'g'ri keladi- 206 mingdan ko'proq.

Janubiy Afrika Respublikasi ham infeksiyaning asosiy o'choqlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda 520 mingdan ortiq kasallanish holati qayd etilgan, bu butun qit'ada aniqlangan barcha holatlarning yarmidan ko'pidir. Afrikada jami 21 ming kishi koronavirusdan vafot etdi, ulardan deyarli 8,9 mingi Janubiy Afrika Respublikasiga to'g'ri keladi.

Statistika

"Worldometers" ma'lumotiga ko'ra, 6-avgust ertalab holatiga dunyoda kasallanganlarning umumiy soni 18 million 973,9 ming kishini tashkil etdi, 711,1 ming odam vafot etgan.

Kasallanish holati eng ko'p qayd etilgan davlatlar: AQSH - 4 million 973,5 ming, Braziliya - 2 million 862,7 ming, Hindiston - 1 million 963,2 ming kishi.

O'lim holati: AQSH - 161 601, Braziliya - 97 418, Meksika - 49,698, Buyuk Britaniya - 46 364, Hindiston - 40 739.

COVID-19dan davolanganlarning umumiy soni 12 162 136 kishiga yetdi, bu umumiy miqdorning 64 foiziga teng.

Markaziy Osiyodagi vaziyat

Qozog'istonda bemorlarning umumiy soni 94,882 nafar, 67 031 kishi sog'aygan, 1058 fuqaro vafot etgan.

Xabar qilinishicha, Qozog'istonning Rossiya bilan chegaradosh hududida xavfli parranda grippining yangi shtammi aniqlandi. Veterinariya va fitosanitariya nazorati bo'yicha federal xizmatning Chelyabinsk boshqarmasi ushbu hududda aniqlangan parranda grippi virusining genetik materiali haqida xabar tarqatdi. Qushlarning o'ligidan olingan barcha namunalarda H5N8 turidagi parranda grippi virusi topilgan, deb xabar beradi "Liter.kz".

Chegara hududidagi vaziyat viloyat veterinariya xizmati tomonidan alohida nazoratga olindi. H5N8 turi odam uchun uncha patogen bo'lmasa ham, ayniqsa, odam grippning boshqa turiga uchrasa, tezda mutatsiya bo'lishi va o'limga olib kelishi mumkin.

Qirg'izistonda kasallikka chalinganlarning umumiy soni 38 110 ga yetdi, 29 513 kishi tuzaldi, 1 438 nafar fuqaro vafot etdi.

Issiqko'l viloyatida yo'lovchi tashish tiklandi. Qaror viloyat tezkor shtabi yig'ilishida qabul qilindi. Hukumatning Issiqko'l viloyatidagi vakolatli vakili B.Tulobayev yo'lovchilar tashish bilan shug'ullanuvchi haydovchilar va kompaniyalarga nisbatan qattiq talablar belgilanishini ta'kidladi.

Bishkekdagi yettita statsionar ishi to'xtatildi. Meriyaning ta'kidlashicha, "shahar tuzala boshladi, ba'zi statsionarlarda bemorlar kam yoki umuman yo'q". Kunduzgi statsionarlarda bir oy davomida 84 ming 689 kishi tibbiy yordam oldi, tungi statsionarlarga 8 ming 688 bemor qabul qilindi.

Tojikistonda yana 42 ta yangi holat aniqlandi, 6 399 kishi sog'aydi, 61(o'zgarishsiz) fuqaro vafot etgan.

Turkmaniston haliyam mamlakatda koronavirus infeksiyasi mavjudligini rad etmoqda.

Dunyodagi so'nggi tendensiyalar

AQSH Prezidenti Donald Tramp "Axios" yangiliklar saytiga bergan intervyusida shtatlardagi epidemiologik vaziyat imkon qadar hukumat nazorati ostida ekanini aytdi.

Shu bilan birga, AQSHda mansabdor shaxslar o'rtasida test jarayoni haqida munozaralar boshlandi. Masalan, mamlakatning bosh infeksiyachisi E.Fauchi koronavirus uchun test javobini berish jarayoni cho'zilayotganini tanqid qildi. U AQSHdagi bemorlarga tahlillar natijalarini berishning hozirgi muddatlarini qoniqarsiz, deb aytdi. "CNN" ma'lum qilishicha, ekspert test javobi 10 minutda berilishi eng yaxshi variant, deb hisoblaydi.

31-iyul kuni Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vaziri yordamchisi B.Djiruar Kongressda test natijalarini 48-72 soat ichida berishning iloji yo'qligini ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, mamlakatda o'tkazilgan test natijalarining 75 foizi 5 kun ichida berilmoqda.

Avvalroq "Microsoft" korporatsiyasining asoschisi B. Geyts "CNBC" telekanaliga bergan intervyusida AQSHda bu interval o'rtacha 48 soatdan oshib ketishi aqlga bovar qilmaydigan vaziyat ekanligini aytdi.

"[Euractiv.de](https://www.euractiv.de)" portaliga xabariga ko'ra, Germaniyaning eng yirik "Allianz" sug'urta kompaniyasi koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqirozdan 1,2 milliard yevro zararga kirdi. Amalga oshirilgan amaliyotlar soni 19 foizga kamaydi. Shu bilan birga, kompaniyaning bosh direktori O.Betening fikricha, eng yomon paytlar ortda qoldi. U kompaniya birinchi olti oy davomida barqaror bo'lganini eslatib o'tdi: "Bu bizga 2020-yilning ikkinchi yarmida barqaror biznes natijalarini ko'rishimizga ishonch bag'ishlaydi".

Italiya Sog'liqni saqlash vazirligi mamlakatda yangi koronavirus bilan zararlanish holatlari soni ikki oylik maksimumga yaqinlashganini ma'lum qildi. O'tgan kun davomida 384 ta yangi holat qayd etildi. Mamlakatdagi kasalxonalarda 764 bemor davolanmoqda, ulardan 41 nafari intensiv terapiya bo'limlarida muolaja olmoqda. Sog'liqni saqlash vazirligi va Milliy statistika instituti ma'lumotiga ko'ra, taxminan 1,5 million italiyalikda koronavirusga qarshi antitanachalar aniqlangan, bu mamlakat aholisining 2,5 foiziga teng.

Vaksina va dori ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar

"PanPay" axborot portalining xabar berishicha, Xitoyning "Fosun Pharma" farmatsevtika kompaniyasi va Germaniyaning "Biontech" kompaniyasi XXRda birgalikda ishlab chiqilgan BNT162b1 koronavirusga qarshi vaksinani odamlarda sinovdan o'tkazishning birinchi bosqichini boshladi.

Sinovlarda Tayjou (Szyansu provinsiyasi, Sharqiy Xitoy)dan 144 ko'ngilli ishtirok etadi. Birinchi bo'lib 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan odamlar, keyin esa 55 yoshdan oshgan fuqarolar emlanadi. "PanPay" ma'lumotlariga ko'ra, 72 kishida vaksinatsiya qilib bo'lindi.

Sinovlar tadqiqotda dorini imitatsiya qilish uchun ishlatiladigan, aniq davolash xususiyatiga ega bo'lmagan platseboni qo'llagan holda o'tkazilmoqda. Ba'zi ko'ngillilar vaksinani, qolganlari esa platseboni olishadi. Har bir ishtirokchiga 21 kun davomida jami 10 mkg va 30 mkg dan ikkita inyeksiya beriladi.

Gonkongning "RTHK" radio eshittirish xizmati xabariga ko'ra, Gonkongdagi Xitoy universiteti professori G.Von boshchiligidagi olimlar COVID-19 ga chalingan 22 yoshdan 52 yoshgacha bo'lgan mingdan ortiq bemorning klinik ma'lumotlarini o'rganib chiqdi. Bemorlarning 23 foizida jigar faoliyatida jiddiy buzilish aniqlandi. Ularning aksariyati intensiv terapiyaga muhtoj. G.Vonning so'zlariga ko'ra, COVID-19 asoratlari bo'lgan bemorlarda yallig'lanish rivojlanishi mumkin, bu gepatitning ba'zi shakllari, jumladan, reaktiv yoki ishemik gepatitga olib keladi. Bundan tashqari, dorilar, jumladan, antibiotiklar, steroidlar va virusga qarshi dori vositalari ham jigarga zarar yetkazishi mumkin. Gonkong olimlarining fikricha, keksa odamlarda jigar kasalligiga chalinish xavfi yuqori.

COVID-19 ning salbiy oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

TASS xabariga ko'ra, Nyu-York hukumati koronavirusga chalingan odamlarni aniqlash uchun shaharga kirish joylarda tekshiruv punktlarini tashkil etadi. Koronavirus tashxisi qo'yilganlar 14 kunlik karantinda bo'lishi kerak, ushbu talablarni buzganlarga esa 10 ming dollargacha jarima solinadi.

Ko'priklar va tunnellar, shuningdek temir yo'l stansiyalari va aeroportlar orqali shaharga kirish sherif apparati xodimlari tomonidan nazorat qilinib, ular transport vositalarini tanlab to'xtatadilar. Vaziyatni koronavirus bo'yicha test o'tkazish va uning tarqalishini nazorat qilish guruhi xodimlari ham kuzatib boradi. Hozirda shaharda har beshinchi holat boshqa shtatlardan kelgan odamlarda aniqlanmoqda.

Nyu-York shtati gubernatori Endryu Cuomo koronavirus bo'yicha ijobiy testlar yetti kunlik o'rtacha darajasi 100000 aholiga 10 tadan yuqori bo'lgan shtatlar ro'yxatini doimiy ravishda yangilab turibdi. Ayni paytda ushbu ro'yxatga 35 shtat kiritilgan

Isroil hukumati 16-avgustdan aviareyslarni tiklash rejasini tayyorlamoqda. Shuningdek, Hukumat komissiyasi Vazirlar Mahkamasiga dam olish kunlari savdo markazlari va do'konlar ishlashi bo'yicha cheklovlarni olib tashlashni tavsiya qildi. Bosh vazir B.Netanyaxu mamlakatda koronavirus tarqalishiga qarshi kurashning ikkita asosiy vazifasi kasallar sonini kamaytirish va kasallanish zanjirini uzishdan iborat ekanini ma'lum qildi. U ayni payt Isroilda kasallanish darajasi dunyodagi eng yuqorilardan biri ekani, so'nggi ikki hafta davomida mamlakat kasallanish cho'qqisiga chiqqanini ta'kidladi.

"Kyodo" ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiyadagi yana bir prefektura - Ayti koronavirus infeksiyasining tarqalishi o'sishi sababli favqulodda holat rejimini joriy qilmoqda. Bu tartib 6-avgustdan 24-avgustga qadar amal qiladi. Ma'muriy markazi Nagoya shahrida bo'lgan Ayti prefekturasi Xonsyu asosiy orolining markaziy qismida joylashgan. Aholisi qariyb 7,5 million kishini tashkil etadi. Bu yerda ko'plab sanoat korxonalari faoliyat yuritadi. So'nggi to'qqiz kun ichida prefekturada yuzdan ortiq yangi holat aniqlandi. Aytidan tashqari, avvalroq bunday tartibni Okinava janubiy prefekturasi va markaziy Miye ham joriy qilgan edi.

"RIA Novosti" ta'kidlashicha, Shveysariya Rossiyani koronavirusni yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatidan chiqarib tashladi. 8-avgustdan boshlab Rossiya Federatsiyasidan keladigan yo'lovchilar uchun majburiy 10 kunlik karantindan o'tish talabi bekor qilinadi. Mazkur ro'yxatdan Rossiyadan tashqari Ozarbayjon va Birlashgan Arab Amirliklari ham chiqarib tashlandi. Virus yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatiga jami 46 ta davlat kiritilgan. 8-avgustdan ro'yxatga Ispaniya, Ruminiya va Singapur ham qo'shiladi.

Armaniston favqulodda holat rejimini bir oyga uzaytirishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, mamlakat chet el fuqarolarining kirish imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqishga va ayrim tovarlarni eksport qilishdagi cheklovlarni olib tashlashga tayyor, deb xabar beradi "Sputnik Armenia". Armanistonda favqulodda holat rejimi 14-martda joriy etilgan bo'lib, oxirgi marta 12-avgustgacha uzaytirilgan edi.

Armaniston hukumatining ta'kidlashicha, respublikada pandemiya bilan bog'liq vaziyat asta-sekin yaxshilanmoqda, biroq profilaktika normalariga rioya qilinmagan taqdirda, kasallar soni keskin ko'payishi ehtimoli mavjud.